

TO'MTOQ MARMARAKNING NOYOB XUSUSIYATLARI.

Oltiboyeva Mavsuma G'ulom qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrsi assistenti

Annotatsiya Insoniyat tarixida tabiat boyliklaridan, jumladan o'simlik resurslaridan foydalanish va ularning dinamik (o'zgargan) xolatini aniqlash doim dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Hozirgi vaqtda esa bu yo'nalish xalqaro miqyosda ham ekologik barqarorlikni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan muammodir. Tashqi muhit va ekologik barqarorlikni cho'llanishdan asrash – O'zbekistonda hamda xalqaro miqyosda ham, xalq va davlat talabidan kelib chiqqan eng dolzarb muammodir. Sababi, tabiat boyliklari – davlat, jamiyat va xalqning moddiy boyligidir.

Kalit so'zlar: *Salvia submutica*, organogenez, lagoxilin, differensiya.

Unique features of blunt marmarak.

Annotation In the history of mankind, the use of natural resources, including plant resources, and determining their dynamic (changed) state has always been a topical issue. Currently, this direction is a problem aimed at maintaining and developing ecological stability at the international level. Protecting the external environment and ecological stability from desertification is the most urgent problem arising from the demand of the people and the state, both in Uzbekistan and internationally. The reason is that natural wealth is the material wealth of the state, society and people.

Key words: *Salvia submutica*, organogenesis, lagoxilin, differentiation.

Dorivor o'simliklardan biri *Salvia submutica* Betch. VWed. hisoblanadi. Bu tur yalpizdoshlar oilasi (*Lamiaceae*) *Salvia* turkumiga mansub ko'p yillik o'simlikdir. Uning bo'yi 30-60 sm poyasi to'rt qirrali, shoxlangan va yog'ochlashgan, barglari poyada qisqa band orqali qarama qarshi joylashgan uch besh bo'lakka bo'lingan, to'rsimon tomirlagan uchki qismi o'tkirlashgan. Barglari un sepilgandek oppoq bo'ladi sababi unda

„Iagoxilin” moddasi ko’p bu o’simlik iyun-iyulda gullab iyul avgustda pishib yetiladi. Urug’i jigarrang qora rangda bo’lib 1000 dona urug’ining og’irligi 35,02gr ni tashkil etadi.

Salvia turkumi turlarining ichida *Salvia submuticaning* dorivorlik xususiyati yuqori baholanadi. Uning yer ustgi qismida tayyorlangan damlamasi gipertoniya va gemofiliya kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Kuzatishlarimizdan shu narsa ma’lum bo’ldiki *Salvia submuticaning* vegetatsiya davri yilning issiq va sovuq kelishiga qarab turlicha bo’ladi, vegetatsiyasini mart oyining o’rtalaridan boshlanadi. O’sish davri to sentiyabrning oxirigacha davom etadi. O’sish boshidan sekinroq kechadi. Aprel va may oyida o’sish ancha tezlashadi. Introduksiyalanayotgan o’simliklarni seleksiyasi va urug’chiligini to’g’ri tashkil etish uchun o’simlikning gullash va meva tugish biologiyasini o’rganish lozim. Bu masalani o’rganishga bir qator tadqiqotchilar hissa qo’shishgan. *Salvia submuticaning* bu tomonlari o’rganilmagan. Shu sababli ham bizlar o’z tadqiqotlarimizni ushbu masalani hal etishga qaratdik.

Gulning tuzilishi va gullash jarayoni. Biz o’rganayotgan ob’yektlarimizda gul elementlari erta bahorda boshlanadi. Fevral oyining o’rtasidayoq, o’sish konusining bo’rtishi va murtak poyasining maxsus to’qimalarining hosil bo’lishi boshlanadi. Murtak to’qimalari va bo’g’im oraliqlarida ikkilamchi bo’rtmachalar hosil bo’ladi ulardan keyinchalik ikkilamchi gul o’qlari rivojlanadi.

O’sish konusida murtak bo’rtmalari hosil bo’lish davrida pastki bo’rtmachalar kattalashib yon o’qlar hosil qiladi (organogenezning II davri). 20 kundan keyin (mart boshida) asosiy to’pgul o’qida differensiyalanish davom etadi va bo’rtmachalar hosil bo’ladi ulardan keyinchalik gul elementlari rivojlanadi.

G’unchalash davri. May oyining 15-20 kunlarida boshlanadi. Bu g’unchalash davri iyul oyining boshlarigacha davom etadi. Gullash davri esa iyun oyining oxiridan boshlab to avgust oyining boshlarigacha davom etadi. Bunda gullash iyul oyi ancha jadallashadi.

Mevalash davri esa iyul oyining oxirlaridan boshlanadi. Mevalash sentabr oyining o’ninchilarigacha davom etadi. Mevalarning yetilishi asta avgust oyining o’rtalarida boshlanadi. Mevalar sentabr oyining oxirlarigacha pishib yetila boshlaydi. Bunda gullash mevalash pastdan tepaga qarab boradi.

Tinim davri esa oktabr oyining boshlarida tinim davri o'tadi bunda o'simlik yer o'stki qismi quriydi. Mevalari yerga to'kila boshlaydi. *Salvia submutica* ning mevasi ko'sakcha bo'lib ko'sakcha ichida 4 tadan urug' bo'ladi. So'ng ustki qismi qurub to'kilib yer ostki ildizi qo'shilib qoladi va bu yil bahorda yangi poyalar o'sib chiqa boshlaydi. Urug'larini tinim davrini o'tkazgandan keyin bahor oyida una boshlaydi. *Salvia submutica* asosan urug'dan va partikulyasiya yo'li bilan ko'payadi. To'mtoq marmarak (*salvia submutica*) Nurota tog' tizmasining endemik turi. Bu tur O'zbekiston Respublikasi o'simliklar "Qizil Kitobiga" kiritilgan bo'lib, kamyoblik darajasi II. Hozirgi kunda areallari juda qisqarib ketmoqda, sababi antropogen omillar ta'siri (maxalliy tabiblar tomonidan yig'ib olinishi, chorva mollarining boqilishi) va to'liq changlanmaslik (kuchli shamolning ta'siri) oqibatida.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Алтыбоева М., Норкулова З., Худойбердыева З. СВОЙСТВА РАСТЕНИЯ SALVIA SUBMUTICA //Иновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 10-11.

2. G'ulomovna, O. M., INTESTINAL, S. B. M. V. O., & MICROFLORA, I. CHILDREN//Nauchnyy Fokus.-2023. T, 1, 279-282.

3. Altyboeva M. G., KISHECHNUY B. N. S. S. V. N. A., MIKROFLORU U. DETEY//Nauchnyy Fokus.-2023 //T. – T. 1. – С. 109-112.

4. Sadriddinovna A. S., Gulyamovna A. M. The relevance of the meaning of plantain in folk medicine //Eurasian Medical Research Periodical. – 2023. – Т. 19. – С. 49-50.

5. Alikovna J. F. et al. SALVIA O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 217-218.

6. Mavsuma O. medicinal properties of sea buckthorn (*Hippophae Rhamnoides L.*) OIL PLANT //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 1-3.

7. G'ulomovna O. M., Sobirjonovna B. N. MODERN VIEWS ON INTESTINAL MICROFLORA IN CHILDREN //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 279-282.

8. Жураева Б. Г., Пулатов Ф. А. ИЗГОТОВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ, КОСМЕТИКИ И БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ДОБАВОК И ОБЕСПЕЧИВАНИЕ ИХ КАЧЕСТВА //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 20. – №. 1. – С. 120-123.

9. Azizxonovna N. M. POSITIVE AND NEGATIVE ASPECTS OF MEDICAL CANNABIS //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 38-41.